ZÕRAVONLIKKA UCHRAGAN BOLALARNING RUHIY HOLATI VA ULARNI IJTIMOIY QÕLLAB -QUVVATLASH MASALALARI.

Ruzibadalova Dildora Anvar qizi
Õzbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy ish yõnalishi talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.23835511

Sindirilgan nihollar qismati.Tasavvur qiling, endigina kurtak yozayotgan mitti niholning ustiga oğir tosh qõyilsa nima bõladi? Nihol yo qiyshiq õsadi ,yo butunlay sinadi.Bola hayoti va uning ruhiyati ham xuddi shu mitti nihol kabidir.Afsuski ,bugungi kunda dunyoda va atrofimizda zõravonlik qurboniga aylanayotgan, ruhiyati chil-chil singan bolalar juda kõp. Bolalik-bu shunchaki yosh davr emas,bu inson kelajagining poydevoridir.Poydevorga yetkazilgan har qanday zarba butun bir binoning qulashiga olib kelishi mumkin.

Bola qalbining kõrinmas jarohatlari .Zõravonlik faqat jismoniy jarohat (kõkarish va qizarishlar) bilan cheklanmaydi.Eng xavflisi-kõzga kõrinmas,yillar davomida bitmaydigan ruhiy jarohatlardir.Tibbiyot va psixologiya sohasidagi izlanishlar va tadqiqotlar shuni kõrsatadiki ,doimiy qõrquv va tazyiq ostida õsgan bolalar miyasida jiddiy õzgarishlar yuz beradi.

Birinchidan ,posttravmatik stress buzilishi (PTSB).Zõravonlik kõrgan bola õzini doim xavf ostida his qiladi.Tashqi muhitdan uzilib qoladi.Õz qobiga õralib egoist bõlib qoladi.Jahon soğliqni saqlash tashkiloti(JSST)ma'lumotlariga kõra ,bolalikda ruhiy va jismoniy tazyiqqa uchragan insonlarning katta yoshda depressiyaga tushish ehtimoli oddiy odamlarga qaraganda 3 barovar yuqori turadi.

Ikkinchidan ishonch tuyğusi va tajovuzkorlik.Bola õzi suyanishi kerak bõlgan yaqinlaridan (ota-onasi,õqituvchisi,tengdoshlaridan) zulm kõrsa ,unda butun dunyoga nisbatan nafrat hisi uyğonadi."Agar meni yaqin insonim urgan bõlsa ,demak, dunyodagi hamma yomon",degan tushuncha shakllanadi.Natijada bola haddan tashqari tortinchoq va qõrqoq yoki õzi ham shavqatsiz bõlib ulğayadi.Kriminologik tadqiqotlar shuni kõrsatadiki,bugungi kunda jinoyat sodir etayotgan shaxslarning qariyb 70-80 foizi bolaligida oilaviy zõravonlik guvohi va qurboni bõlgan .

Ijtimoiy qõllab-quvatlash.Faqat qoğozda emas, balki amalda ham bajarishdir.Xõsh ,biz qalbi yaralangan bolalarga qanday yordam bera olamiz?Biz zõravonlikka uchragan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatish va "hammasi yaxshi bõladi "deb tasalli berish bilan ularning muammosini tõliq yechmaymiz.Bu yerda tizimli, kompleks va eng muhimi -samimiy ijtimoiy qõllab -quvvatlash zarur.Õzbekistonda ham sõnggi yillarda bolalar huquqlarini himoya qilish borasida jiddiy qadamlar tashlanmoqda. Xususan,Ijtimoiy himoya milliy agentligi tashkil etilib,tazyiq va zõravonlikka uchragan bolalar bilan bevosita ishlovchi ijtimoiy xizmatlar markazlari va psixologlar tarmoqlari kengaymoqda.Biroq ijtimoiy himoya faqat davlat idoralarining vazifasi bõlib qolmasligi kerak.

Muammoni faqat gapirish yetarli emas ,uning amaliy yechimlarini ham õrtaga tashlash lozim.Zõravonlikka uchragan bolani qayta hayotga qaytarish uchun quyidagi uchta ustuvor yõnalishda ishlashimiz shart:

1.Xavfsiz va Anonim Ishonch Tarmoqlari:Bola õz dardini kimgadir aytishdan va shikoyat qilishdan qo'rqadi.Chunki u "agar aytsam, dadam yoki oyim meni yanada qattiqroq jazolaydi "deb õylaydi.Shuning uchun bolalar uchun maxsus ,mutlaqo bepul,tunu kun ishlaydigan xavfsiz bõlgan ishonch telefonlari hamda zamonaviy ijtimoiy tarmoq botlari yaratish kerak.Bu islohotlar qishloq

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

joylariga yetib borishi kerak.Har bir maktab binosida bu raqamlar kõzga kõrinadigan qilib yozib qõyilishi kerak.

2.Ota-onalik maktablarini tashkil etish:Kõp hollarda ota -onalar bolani urish yoki baqirish mumkun emasligini bilsalar-da,muammo bõlganda asablarini jilovlay olmaydi .Buning sababi ota -onalarga bolani tarbiyalash va unga qanday munosabatda bõlish õrgatilmagan.Mahallalarda yosh oilalar va ota-onalar uchun maxsus kurslar tashkil etilishi lozim.

3.Huquqiy va ijtimoiy reablitatsiya markazlari.Faqatgina zõravonni jazolash bilan ish bitmaydi.Jabrlangan bolani bir necha oy davomida xavfsiz joyda saqlash,unga ham tibbiy, ham psixologik yordam berish darslardan ortda qolmaslik uchun barcha tuman maktablarida reablitatsiya markazlari tarmog'ini kengaytirish lozim.

Bolalik- inson umrining bahori.Bahorda sovuq urgan daraxt kuzda hech qachon hosil bermaydi,balki qurib qoladi.Zõravonlikka uchragan bolaning ruhiyatini tiklash uzoq va mashaqqatli jarayon,ammo buni tizimli ravishda uddalasa bõladi.Buning uchun quruq va balandparvoz gaplardan amaliy ishlarga õtishimiz kerak.Biz qachonki jamiyatda har bir bolani õz farzandimizdek himoya qila olsak ,kõchada yiğlab turgan bolaning yonidan befarq õtib ketmasak ,shundagina soğlom ,ma'rifatli va baxtli kelajak haqida gapira olamiz.Unutmang,har bir bolaning tabassumi-jamiyatimizning soğlomligidan dalolatdir.Bolalarni asrash-bu pirovardida Vatanni asrash bilan barobardir.

Foydalanilgan adabiyotlar rõyxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi Õzbekiston strategiyasi".-Toshkent:"Õzbekiston"nashriyoti,2021.
2. Õzbekiston Respublikasining "Bolalarni ularning soğligiga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish tõğrisida"gi qonuni.-Toshkent,2017.
3. Ğoziyev E.Ğ."Psixologiya(Yosh davrlari psixologiyasi)".-Toshkent:"Õqituvchi",2002.
4. Jahon soğliqni saqlash tashkiloti(JSST)."Bolalarga nisbatan zõravonlik va uning oqibatlari "bõyicha global hisoboti (World Health Organization report on child maltreatment).
5. Õzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi rasmiy materiallari va statistik ma'lumotlari(2024-2026).

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.